

17-MAY

2024



O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va  
innovatsiyalar vazirligi



Mirzo Ulug'bek nomidagi  
O'zbekiston Milliy  
universiteti

**Inson kapitali ijtimoiy davlatni  
barqaror rivojlantirish omili sifatida**

***Human Capital as a Factor of  
Sustainable Development of the Social  
State***

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

Republican Scientific and Practical Conference

Google Scholar indexed

CYBERLENINKA

Google  
scholar

**MIRZO ULUG'BEK  
NOMIDAGI O'ZBEKISTON  
MILLIY UNIVERSITETI**

**NATIONAL UNIVERSITY OF  
UZBEKISTAN NAMED AFTER  
MIRZO ULUGBEK**

**[www.nuu.uz](http://www.nuu.uz)**

## OILADA BOLALARGA NISBATAN TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIKNING OLDINI OLIISHNING IJTIMOYIY-HUQUQIY ASOSLARI

**F. Sh. Abdullayeva**

Buxoro davlat universiteti Yurisprudensiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrası  
dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

### ANNOTATSIYA:

Maqolada oilada bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olishning ijtimoiy-huquqiy asoslari ko‘rib chiqiladi. Muallif bolalarni oiladagi zo‘ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan amaldagi qonunchilik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralarini tahlil qiladi. Profilaktik dasturlarni joriy etish amaliyotiga, bu jarayonda davlat va jamoat tashkilotlarining roliga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Maqolada xalqaro standartlar va ularning bolalar huquqlarini himoya qilish milliy strategiyalariga ta'siri ham muhokama qilinadi. Xulosada oiladagi zo‘ravonlikning oldini olish uchun kompleks yondashuv va idoralararo hamkorlik zarurligi ta’kidlangan.

**Kalit so‘zlar:** Ijtimoiy-huquqiy asoslar, zo‘ravonlikning oldini olish, oilada bolalar, oiladagi zo‘ravonlik, qonunchilik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, oldini olish dasturlari, xalqaro standartlar.

### ABSTRACT:

The article examines the socio-legal basis for preventing violence against children in the family. The author analyzes current legislation and social support measures aimed at protecting children from domestic violence. Particular attention is paid to the practice of introducing preventive programs and the role of government and public organizations in this process. The article also discusses international standards and their impact on national strategies to protect children's rights. The conclusion emphasizes the need for an integrated approach and interdepartmental cooperation to effectively prevent domestic violence.

**Keywords:** Social and legal foundations, violence prevention, children in the family, domestic violence, legislation, social support, prevention programs, international standards.

Oiladagi zo‘ravonlik- yoshi, etnik kelib chiqishi, ta’lim darajasi yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatidan qat’i nazar, jamiyatning barcha qatlamlariga mansub kishilarga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan keng tarqalgan muammodir. BMTTDning O‘zbekistondagi doimiy vakili Matilda Dimovska ta’kidlaganidek, “Jamiyatning har

qanday qismiga nisbatan istalgan ko'rinishdagi zo'ravonlik uning har bir vakiliga o'z ta'sirini o'tkazadi".[1].

Bugungi kunda ko'pchilik OAVlari orqali zo'ravonlik yoki tazyiq bilan bog'liq voqealar aholiga yetkazib berilmoqda. Shu o'rinda har bir inson "tazyiq" yoki "zo'ravonlik" deganda nimani tushunishi juda muhim bo'lib hisoblanadi. "Tazyiq"-Kuch bilan, zo'rlab o'tkaziladigan ta'sir, siquv degan ma'noni anglatadi, jahon sogliqni saqlash tashkiloti (JSST) zo'ravonlik tushunchasiga shunday ta'rifni beradi: zo'ravonlik bu-o'limga, psixologik zararga, noto'g'ri rivojlanishga yoki mahrumlikka sabab bo'luvchi o'ziga, boshqa shaxsga, guruhga yoki jamiyatga qarshi har qanday kuchni qasddan qo'llash, tahdid qilish yoki jarohat yetkazish zo'ravonlikdir [2].

O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunda zo'ravonlik tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazish choralarini qo'llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmatini va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g'ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik).

Tazyiq- sodir etilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan, xotin-qizlarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan harakat (harakatsizlik), shilqimlik [3].

Bugungi kunda aksariyat davlatlarda oilada voyaga yetmagan bolalarga nisbatan zo'ravonlikning ishlatilishi keng yoyilgan muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Afsuski, aksariyat hollarda oilada bolalarga nisbatan zo'ravonlik bola uchun yaqin bo'lgan va u taniydigan insonlar: ota-onasi, farzandlikka olgan shaxslar, opasi, akasi, bobo-buvisi shuningdek, yaqin qarindoshlari tomonidan sodir etilmoqda.

Oilada zo'ravonlikka uchrayotgan bolalar ijtimoiy-ruhiy zo'riqish yuqori bo'lgan holatga tushib qilishdan tashqari, ularning aqliy va jismoniy rivojlanishida, maktabda o'z tengdoshlari orasida esa bilim olishda orqada qolish kabi muammolar vujudga keladi. Bunday bolalarda xovotir va qo'rqinch hissi yoki depressiyaga (Depressiya (tibbiyotda)- o'ziga ishonmaslik ruhidagi g'amginlik, tushkunlik kayfiyati, umidsizlik, tasavvurlarning bir "qolip"ga tushib qolishi, xohish-istakning kamayishi, harakatlarning chegaralanishi.) uchrashi va buning oqibatida esa narkotik moddalari yoki spirtli ichimliklarga ruju qo'yishi va eng yomoni o'z joniga qasd qilish (suitsid) ruhiyatiga tushib qolish xavfi paydo bo'ladi.

Oilada ota-ona tomonidan bolaga nisbatan zo'ravonlik qilinishining sabablaridan biri, ota-onaning o'zida ruhiy zo'riqish holatining bo'lishi yoki vasiy bolani to'g'ri yurish-turishi uchun uni qo'rqitish yoki unga nisbatan jismoniy kuch

ishlatish natija beradi deb o'ylashadi. Afsuski, bunday munosabat bolani qo'rqqoq bo'lib qolishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, bolaning juda yoshligida oilada zo'ravonlikka uchrashi, uni o'smirlik davri va hattoki, katta yoshda bo'lganida ham uni xotirasida saqlanib qolishi mumkin.

Oilada aka-uka, opa-singillar o'rtasidagi o'zaro janjallar yoki kuch ishlatishlar o'z ketidan turli xil jarohatlarni qoldirishini ham kuzatish mumkin. Ko'pincha ota-onalar bu holatni normal deb bilishadi, yoshlikdagi o'zaro janjallar hech qanday ahamiyatga ega emas deb hisoblashishadi. Ammo, bu unchalik to'g'ri xulosa emas. Aka-ukalar o'rtasidagi o'zaro janjallar ular katta bo'lishganda ham davom etishi mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, voyaga yetmagan bolalarga nisbatan jismoniy zo'ravonlik ishlatish bolada xulq-atvorni yaxshilanish darajasini pasaytirishga olib kelmaydi, aksincha, bu holat bolada har qanday nizoni jismoniy kuch ishlatish orqali yechim topish mumkin degan fikrni uyg'otadi [4].

Rivojlangan davlatlarda ham bolalar zo'ravonlikka uchrashi bilan bo'g'liq holatlar yo'q emas albatta, ammo har bir davlat bolaning huquqlarini himoya qilishni ta'minlashning turli xil mexanizmlarini yaratgan. Dunyo mamlakatlarining ko'pchiligida voyaga yetmagan bolalarning huquqlarini himoya qilish huquq-tartibot idoralari, vasiylik va homiylik organlari yoki o'z-o'zini boshqarish organlari emas, balki ijtimoiy ish sohasi bo'yicha mutaxassislari shug'ullanishadi. Bunday mutaxassislar qiyin ahvolga tushib qolgan oilalar bilan ishlashda yetarli bilim, ko'nikma, shungdek, huquqlar va tajribaga egadirlar. AQSH, Buyuk Britaniya, GFR, Gollandiya kabi davlatlarda ijtimoiy ish xodimlariga qonun tomonidan juda katta vakolatlarni berilgan (masalan, oilada bolaga nisbatan zo'ravonlik qilgan aybdor shaxs yoki shaxslarga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atish, ota-onalik huquqidan mahrum etishi kabi qattiq talablarni qo'ya olishadi).

Xorijiy davlatlarda oilada zo'ravonlikka uchragan voyaga yetmagan bolani ishtimoiy himoya qilish asosan bu to'g'rida xabar berish amaliyotiga tayanadi. Ya'ni istagan har bir kishi zo'ravonlikka uchragan bolani himoya qilish maqsadida o'z tashabbusi bilan bu to'g'rida ishtimoiy ish xodimlari yoki politsiyaga xabar beradi. Bunday xabar berishlar fuqarolar uchun odatiy holga aylanib qolgan. Bundan tashqari, boshqa kasb egalari bo'lgan shifokorlar, pedagoglar, tarbiyachilar, murabbiylar uchun bola huquqlarini himoya qilish birinchi darajali majburiyat etib belgilangan. Oilada zo'ravonlikka uchragan voyaga yetmagan bola haqidagi xabarlarni telefon, pochta orqali yuborish mumkin bo'lib, xabar qilgan shaxsning daxlsizlik huquqi qonun bilan kafolatlanib, shaxs anonimligi ta'minlanadi. Zo'ravonlik to'g'risidagi xabarni olgan ijtimoiy ish xodimlari ishni ko'rib chiqish

vaqtida qirq sakkiz soat ichida politsiya xodimlari va shifokorlar bilan birgalikda oila bilan aloqaga kirishadi (agar holat jiddiy bo'lsa, zudlik bilan ishga kirishiladi). Ijtimoiy ish xodimlari kecha va kunduz, dam olishlarsiz ish olib borishadi. Ular zo'ravonlik yuz bergan oilaga borib, ota-onalar bilan muloqot olib borishgach, bola bilan alohida suhbat qilishadi. Oila a'zolarining fe'l-atvori va oiladagi muhitni ko'zdan kechirgan holda mutaxassislar, o'qituvchilar, qo'shnilar bilan ham suhbat qilishadi. Ijtimoiy ish xodimlari yuzaga kelkan muammoni yaxshi tomonga o'zgarishi uchun bor kuchini ishga solishadi. Bu xodimlar oilada zo'ravonlikka uchragan bolani realibitatsiyadan o'tib uyiga qaytishi uchun bolaga nisbatan zo'ravonlik ko'rsatgan ota-onani yashab turgan uyidan chiqazib yuborish to'g'risidagi sudning qarorini olish imkoniyatiga egadirlar. Albatta bunday mexanizm bolaning huquqlarini ta'minlashda yaxshi natija beradi. Yevropa davlatlaridan Fransiya, Buyuk Britaniyada ham bolaning huquqlarini ta'minlashga qaratilgan bir qator qonunlar bilan birga, bir necha xil ijtimoiy ish xizmatlari ham tashkil etilgan. Masalan, Fransiyada bolala huquqlarini himoya qilish chun:

- a) Bolaga ijtimoiy yordam berish uchun ijtimoiy ish xizmati;
- b) Onalik va bolalalikni himoya qilish bo'yicha ijtimoiy ish xizmati
- c) .maktab o'quvchilari orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi ijtimoiy ish xizmati va maktab ijtimoiy ish xizmati;
- d) Bolalar va o'smirlar uchun psixatriya yordamini beradigan ijtimoiy ish xizmatlarini sanab o'tish mumkin.

Buyuk Britaniya davlatida esa bolaning huquqlarini himoya qilishga oid bir qator normativ huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, bularga:

- 1) "Bolalar to'g'risida"gi Qonun (Childern Akt);
- 2) "Bolalarni foster oilasiga joylashtirish qoidalari to'g'risida"gi Qonun;
- 3) "Bolalarni joylashtirish" ga oid umumiy qoidalar va boshqa bir nechta qonunlar kiradi.

Bolalar to'g'risida"gi Qonunga birinchi marotaba "ota-onaning majburiyati" degan atama kiritildi. Bu tushuncha nafaqat bolaning qonuniy vakillari balki, bolaning qarindoshlari, vasiylar, homiylar, bola tarbiyasi bilan shugullanuvchi shaxslarga ham tegishli ekanligi belgilab qo'yildi [5].

Bugun O'zbekiston Respublikasida bolalarning huquq va erkinliklari hamda ularning manfaatlarini himoya qilish davlatimiz olib borayotgan ijtimoiy siyosatning ustivor yo'nalishidir. Shu bois, yurtimizda bu borada salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, bola huquqlari kafolatlarining qonunchilik asoslari bo'lgan Oila kodeksi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi, "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar

yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi, "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi va boshqa shu kabi qonunlar qabul qilindi.

2023-yilning 10 -oktyabrida bo'lib o'tgan davra suhbatida prezident huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktorining birinchi o'rinbosari Shaxnoza Mirziyoyeva fikriga ko'ra, O'zbekistonda 2023-yilning to'qqiz oyida 1240 ta voyaga yetmaganlarga nisbatan zo'ravonlik holatlari qayd etilgan bo'lsa, shundan 417 tasi jinsiy zo'ravonlik bo'lgan. U o'z nutqini davom ettirgan holda: "Oilaviy zo'ravonlik holatlari ko'payib borayotgani dahshatli ekanligi, qarindosh yaqinlar tomonidan bolalarga nisbatan 166 ta zo'ravonlik holatlari qayd etilgani. afsuski, hatto rasmiy statistika ham o'lchovni obyektiv baholashga imkon bermayotganligini e'tirof etdi. [6].

Bolalarga nisbatan zo'ravonliklarni oldini olish maqsadida Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Adliya vazirligi va YUNISEF "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini taqdim etdi. Hujjatda bolalarga nisbatan zo'ravonliklarning turlari-jismoniy zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, ruhiy zo'ravonlik, g'amxo'rlik ko'rsatmaslik, ekspluatatsiya, bulling kabilarga ta'rif berilgan. Bolalarga nisbatan zo'ravonlikning barcha shakllarini sodir etish taqiqlanadi hamda qonunga binoan ta'qib qilinadi. Shu bilan birga loyihada sohadagi vakolatli organ sifatida prezident huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi va uning hududiy bo'linmalari ko'rsatilgan. Qonun loyihasida zo'ravonlikdan himoya qilish faoliyatiga quyidagi davlat organlari va tashkilotlari: hukumat, Bolalar ombudsmani, Ijtimoiy himoya milliy agentligi; prokuratura organlari, ichki ishlar organlari, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligi; mahalliy hokimiyat organlari va boshqalarning bevosita mas'ulligi belgilab qo'yilmoqda. Qonun loyihasining 42-moddasiga ko'ra, bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilishda ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga ham bir qancha mas'uliyatlar yuklatilgan. Xususan, ular bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, bolaga o'z burchlari, huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini hurmat qilishni tushuntirishi kerak, deb belgilanmoqda. Bolalarni pornografiya, shafqatsizlik va zo'ravonlikni namoyish etuvchi axborotdan himoya qilish choralarini ko'radi. Shuningdek, ota-ona yoki uning o'rnini bosuvchilar bolalarni tarbiyalashda ularni jismoniy jazolashi taqiqlanadi. Ushbu qonun loyihasi 27-oktyabrga qadar davom etadi. Albatta fuqarolarimiz qonun loyihasi bo'yicha o'z takliflari berishi muhimdir [7].

Jamiyatda bolalarga nisbatan zo'ravonlik nafaqat oilada, balki u o'qiydigan maktab yoki atrof- muhitda ham sodir etilayotgani achinarli holdir. Bugun Bulling dunyo bo'ylab o'quvchilar hayotining bir qismiga aylanib borayotgani sir emas

albatta. Bulling hamma joyda va har qanday vaqtda bo'lishi mumkin: kundalik hayotda, yozishmalarda yoki ijtimoiy tarmoqlarda. Bu nafaqat bolaning o'qishga diqqatini qaratishga to'sqinlik qiladi, balki uzoq davom etadigan ruhiy jarohatlarga ham olib kelishi mumkin. Demak, biz aholimizga bu zo'ravonlik haqida yetarli ma'lumotlarni yetkazib berishimiz va bullingni to'xtatishimiz zarur deb o'ylayman. Umuman aytganda bolalarga nisbatan zo'ravonlikni oldini olish uchun quyidagilarni taklif etish mumkin:

- a) aholinini huquqiy savodxonligini kuchaytirish;
- b) jamiyat a'zolarining qarashlarini o'zgartirishimiz (loqayd, befarq bo'lmaslik);
- c) zo'ravonlikka qarshi kurashish ko'nikmalarini ishlab chiqish;
- d) OTM barcha yo'nalishi talabalariga bola huquqlari fanini o'qitish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

#### **REFERENCES:**

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/03/13/gender-based-violen/>
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Zoravonlik>
3. "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun 2019-yil 2-sentyabr
4. Насилие в отношении детей в семьях в Казахстане: исследование знаний, отношения и практики. Краткий аналитический отчет. Астана, 2017 год
5. <https://ria.ru/20100317/214971297.html>
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/10/10/violenc>
7. <https://kun.uz/137>

25. E Ro'zimatov, F Abduxalilova., - Xavf ostida bo'lgan oilalar va bolalar bilan tibbiy va ijtimoiy- psixologik ish.	139-142
26. G. Xolmurodov, AMuqimova - O'zbekiston respublikasida oilalarga qaratilgan ijtimoiy siyosatning o'ziga xos xususiyatlari.	143-148
27. U.T.Xomidjonov - Ta'lim tizimining ijtimoiy mohiyatini o'rganishda institusional yondashuv	149-152
28. Q. A.Axmedov, S. U.Bekchanova - Ijtimoiy ish xodimlarini tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari.	153-161
29. D.O.Axmedova, Ch.Durdiyeva - Bolalar va o'smirlar o'rtasida deviant xulqning shakllanishi.	162-165
30. C.Yusupova - Современные технологии урегулирования гендерных конфликтов в семье.	166-172
31. N. M.Raximova - Ilm-fanda ayollar, ta'lim sifatini oshirish masalasidagi asosiy mavzular.	173-177
32. N.Yu.Razzakova, M.Sh.Tillayeva - Yoshlar inson kapitali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omili sifatida.	178-184
33. A.A.Abduxalilov, X.Sh.Mamatkulova - Основные аспекты развития философии независимой жизни лиц с инвалидностью.	185-190
34. N.M.Latipova, Yu.R.Yuldasheva - Sug'urta tizimi orqali aholini ijtimoiy farovonligiga erishayotgan xorijiy mamlakatlar tajribasi.	191-197
35. J.A.Ibrohimov - Ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslar ustidan ma'muriy nazorat.	198-206
36. C.H.Yusupova, X.B.Sidikova - Социальная защита лиц с инвалидностью.	207-215
37. S.Turg'unova - Shaxs ijtimoiylashuvida mahallaning o'rni.	216-219
38. B.C.Alekseeva, Э.Р. Минибаева - Гендерное равенство в Узбекистане	220-225
39. F.Sh.Abdullayeva- Oilada bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olishning ijtimoiy-huquqiy asoslari	226-231
40. A.Gulmurodov - Kadrlar kompetentligini oshirishda etnomadaniy xususiyatning nazariy-metodologik asoslari.	232-234
41. D.O.Axmedova, M.Inomjonova - Yoshlar tarbiyasi ijtimoiy muammolar sifatida.	235-238
42. D.YU. Samatova - Jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan xotin-qizlarni qayta ijtimoiylashuvida "ijtimoiy ish xodimi"ning vazifalari.	239-242
43. G'.Xolmurodov, S.Boybo'sinova - Pedofillarning ijtimoiy hayotga ta'siri.	243-247
44. M.Abduvaliyeva, D. Farmonova- Sharqda fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlarining rivojlanish evolyutsiyasi.	248-251
45. K.U. Sharipova - Gender tenglikning namoyon bo'lish sohalari va uni ta'minlashda ijtimoiy institutlarning o'rni.	252-258
46. E.E.Ro'zimatov, Sh.Sh Sharipova.- Inklyuziv ta'limni joriy etish – o'zbekistonning ijtimoiy siyosat tizimini elementlaridan biri sifatida.	259-263
47. H.M.Latipova, B.Xasanov - Факторы мотивации молодежи в профессиональном становлении.	264-269
48. Ш.Мирзаева - Показатели развития женского предпринимательства в Узбекистане.	270-275



49. Sh.Kenjayeov, J.B.Jabborov- Yangi O'zbekistonda ehtiyojmnad yoshlar bandligini ta'minlashda ijtimoiy ish sohasi va ijtimoiy ish xodimining roli.	276-282
50. Л.Б.Кадираджиева - РОЛЬ ТРЕТЬИХ СТОРОН В ФОРМИРОВАНИИ СУПРУЖЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.	283-288
51. А.А.Абдухалилов, М. Н.Тулаганова - Роль понимания моделей инвалидности в процессах формирования социальной политики государства.	289-294
52. А. J.Sodiqova - O'zbekistonda nogironligi bo'lgan bolalarni jamiyatga integratsiya qilishning o'ziga hos jihatlari	295-299
53. М.А.Абдувалиева, М.Жалилова - Хотин-qizlarga nisbatan zo'rvonlik muammosini o'rganishning nazariy metodologik asoslari.	300-305
54. Q.A.Axmedov, G.Imomxasanova - O'zbekistonda yoshlarga qaratilgan ijtimoiy siyosatning xususiyatlari.	306-309
55. G. Xolmurodov, P.Xafizova - To'liq bo'lmagan oilalar bilan ishlashda ijtimoiy ish xodimlarining o'rni.	310-313
56. В.С.Алексеева, А.Чикос - Адаптация детей и молодых людей с инвалидностью в социальной среде.	314-318
57. D.O.Axmedova, E.O'.O'tkirova – Хотин-qizlarga nisbatan zo'rvonlik va uni bartaraf etish omillari.	319-323
58. Sh. Sh.Qudratov - O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarga qulay muhit yaratishda ijtimoiy ish xodimining ro'li.	324-328
59. E. I.G'oyibov - Ta'limmuassasalarida yoshlarning ijtimoiy – ma'naviy faolligini oshirishda nodavlat-notijorat tashkilotlarning o'rni.	329-332
60. К.Инаков, Ф.ЗЕЙНАЛОВА- Семейное насилие и его воздействие на здоровье и благополучие детей.	333-339
61. U.Xomidjonov, M.Sharifova - O'zbekistonda хотин-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ayollarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirishning dolzarb jihatlari.	340-345
62. Sh.Samatov - Ta'lim tizimida rahbarlik va boshqaruv madaniyatining ijtimoiy omillari.	346-349
63. D.O.Axmedova, M.R.Abdumalikova - Bolalarga nisbatan zo'rvonlik ijtimoiy muammo sifatida.	350-355
64. E. E.Ro'zimatov, G. I.Umatqulova - Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida ijtimoiy ish kasbining ahamiyati.	356-360
65. A.M.Maxsudova, M.Mamadiyoroova - Nogironligi bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash inson kapitali sifatida.	361-364
66. Н.Ю.Раззакова, З.У.Эргашева - Bolalarga nisbatan zo'rvonlik muammosi.	365-370
67. Teshayev Doniyor Majid o'g'li-O'zbekistonda mediatsiyani qo'llash va mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirishning huquqiy jihatlari.	371-376
68. Xomidjon Umidjon, Irgasheva Ziyodaxon - Ijtimoiy fikr shakllanishida OAV va internet ijtimoiy tarmoqlarining o'rni.	377-380
69. Б.Риспаев - Волонтерство с детьми с инвалидностью как вид социальной деятельности.	381-386